



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ERTAKNING AHAMIYATI

*Yuldasheva Dilafroz Maxamadaliyevna*

*FarDU*

*filologiya fanlari doktori (DSc) dotsent*

*Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi*

*FarDU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va*

*metodikasi (maktabgacha ta'lim)*

*mutaxassisligi, 1-bosqich magistranti*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15258089>

**Annotatsiya.** Maqolada xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan. Zero maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda alla-qi-shiqlarining ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni va tarbiyaviy ta'siri, xalq ertaklaridan maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanish mazmuni va xalq maqollari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi namunalari, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, maktabgacha ta'lim tashkilot.

Zamonaviy ta'lim tizimi yangi avlod pedagoglarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Innovatsion yondashuv nafaqat bilimlarni uzatish, balki shaxsning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning bu bilimlarni singdirilishi lozim bo'lgan ob'ektlikdan ularning barchasini o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'zi o'zlashtirishga moyil bo'lgan sub'ekt darajasiga ko'tarilishi, mustaqil shaxs sifatida tan olinishi muhitida tashkil etilishi kompetentli shaxs shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni o'z ona tilida nuqsonsiz so'zlashishga, mustaqil fikrlashga o'rgatish, tafakkurini rivojlantirishga oid bilimlar berish ilk yoshdan boshlanadi. Ular tug'ilganidan boshlab tevarakat-rofni qiziqib kuzata boshlaydilar, ulg'aya boshlagan sari o'zlarini o'rab turgan narsalarni, buyumlarni, yuz berayotgan tabiat hodisalarini bilgilar keladi. Bu borada ota-onalar xalq og'zaki ijodi namunalaridan tanishtirishlari, mustaqil fikrlashi va fikrini erkin bayon qilishlari uchun shart-sharoit yaratib berishlari bolalarning nutqini, dunyoqarashini o'stirishga xizmat qiladi.

Ko'pincha muammoli vaziyatlar savolni to'g'ri qo'yilmaganligi sababli qiyinchiliklar bilan hal etiladi, bunday holatlarda boshqa yo'llarini izlab topish kerak bo'ladi. Ba'zi ertak qahramonlari bo'y-basti, gavdasi bilan farqlanib turadi, lekin hal etuvchi vaziyatda aql yoki ayyorlik, jasurlik yoki uddaburonlik ustun keladi (bu juda hayotiy holatligiga shubha yo'q). Xalq ertaklarida shunga o'xshash ko'plab epizodlarni ko'rish mumkin. Masalan, birovlar uchun qo'ygan qopqoniga o'zi tushgan salbiy qahramon. Bunday misollar bolalarni osongina boylik to'plash uchun bosilgan noto'g'ri qadam qanday xunuk oqibatlariga olib kelishi, har qanday vaziyatda chuqur mushohada qilib, keyin ish tutish kerakligiga o'rgatadi.

Yuzaga kelgan turli masalalarni oqilona hal etish uchun inson tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni idrok etishi, o'z aqli va fikriga tayanib xulosa chiqarishni bilishi zarur. Qadimgi odamlar hayot va o'limni, aqllilik va nodonlikni, qo'rqinchilik va kulgilikni, ijobiy va salbiy qahramonlar vositasida ertaklarda aks ettirishgan. Xalq ertaklari ilm ahli tomonidan har tomonlama o'rganilganligi ma'lum. Mana insoniyat voyaga etdi, endi uning qiziqishlari o'zgardi: e'tiqod, ilm, san'at. Ertaklarchi? Ular uzoq o'tmishda qolib ketdimi? Yo'q, ertaklar hamon yashamoqda, qayta-qayta chop etilmoqda (eski va yangi ko'rinishlarda), ularni nafaqat bolalar, balki kattalar ham jon dili bilan sevib o'qiydilar. Ertaklar – bolalarni mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirish uchun bebaho boylikdir.

Ertaklarni o'qib berish uchun maxsus dasturlar kerak emas dersiz? Tasavvur qiling muzey eksponatlarni aylanib yuribsiz! Muzey xodimlari hikoyasidan keyin esa, har bir eksponat jonlanib,



tilga kirgandek, taassurotlaringiz jo'shqin va unutilmas bo'ladi. Ertaklarni jozibador va ta'sirli o'qib berish jarayoni pedagoglardan mahoratni talab etadi. Tajribali tarbiyachilarning fikricha, oddiydek ko'ringan ertaklar bolalar bilan muhokamadan so'ng butunlay boshqacha natijani beradi, ochilmagan qirralar, nazardan chetda qolgan vaziyatlar batafsil yoritiladi. Inson qanchalik dunyoqarashi keng bo'lsa, hayotning yangi- yangi qirralarini ko'ra oladi, hayotdan zavq olish qobiliyati charxlanadi, ilmsiz odam uchun kunlar bir- biridan zerikarli bo'lib, hayoti nolish bilan o'tadi. Bolalarga zavqlanishni ham o'rgatish kerak! Xalq ertaklarida inson va hayot munosabatlari, muammoli vaziyatlarni oqilona yechish usullari o'z aksini topadi.

Tarbiyachi ertakni aytib berish jarayonida ishni shunday olib borishi kerakki, bolalar ertak qahramonlari bilan birgalikda muammoli vaziyatlarni yechsinlar, asosiy qahramonlar munosabatlarini tahlil qilsinlar. Xalq ertaklarida voqealar rivoji turli ko'rinishlarda ro'y beradi. Qizig'i shundaki, bolalar ertakning davomini kutilmagan tarzda yakunlashlari, ehtimoldan yiroq bo'lgan xulosalarni aytishlari mumkin. Ularning kattalarni hayron qoldiradigan xulosalari aynan ertakni eshitib bo'lganlaridan keyingi bahs munozaralarda yuzaga keladi. Ertaklar esa o'z sirli jilosini zig'irchayam yo'qotmaydi, bolalar shunday muhokamalarni o'z ota-onalari bilan uyda tahlil qiladilar, ertak mazmuniga mos rasmlar chizadilar, o'zlarining yangi ertaklarini to'qiydilar. Mohir tarbiyachi bilan birgalikda hatto barchaga yod bo'lib ketgan “Zumrad va Qimmat” ertagining ham kutilmagan sirli qirralarini topish mumkin.

Bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun ertakni o'zlashtirish jarayonida ular asar mavzusiga oid rasmlar chizishlari, ertakdagi voqealar rivojini o'zlari hohlagandek davom ettirishga urinishlari juda muhimdir. Bu mustaqil fikrlashga o'rgatish dasturining asosiy qismlaridan biridir: bolalar ertaklardan ijodiy fikrlashni o'rganadilar. Rivojlantiruvchi ta'lim kattalardan ko'p narsani talab qiladi: tarbiyachi savollarni aniq qo'yishni, bolalarning kutilmagan javoblariga tayyor turishni, bolalarni munozara qilishga undashni, asosli misollar keltirishni, o'ylab topishga usta bo'lishi, bolalar yaratgan kashfiyotlardan quvonishni bilishi kerak. Bunday malakalarga ega bo'lish o'qishni, kasbiy kompetentlikni, izlanuvchanlikni talab qiladi.

Muhimi, bolalarga topshiriqlarni bajarishda erkinlik berish, o'z kashfiyotlaridan, aqlli munozaralaridan zavq olishlariga, xulosalaridan quvonishga imkoniyat yaratishdir. Mashg'ulotlarda ijodiy izlanishga muhit yaratilsa, bolalar kattalar majburlagan yo'nalish bo'yicha ketmasdan, xatolardan qo'rqmay mustaqil harakat qilishlarga sharoit yaratilsa, fikrlash jarayoni ishga tushadi. Maqsad – ana shu. Qolganlari – vositalar.

**Xulosa.** Xalq ertaklari bolalarga ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini o'rgatib, muammoli vaziyatlarni oqilona hal qilish, aql-idrokni ishlatish va turli shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ertaklarni o'qib berish jarayonida pedagogning mahorati va bolalar bilan o'zaro munosabatlari juda katta ahamiyatga ega. Ertaklarni tahlil qilish, qahramonlar bilan muhokama qilish va bolalarga ijodiy fikrlashga imkoniyat yaratish, ular uchun yangi kashfiyotlar qilish va o'z xulosalarini chiqarish imkoniyatini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2011.
2. Vigotskiy L. S. Voobrajenie i tvorchestvo v detskom vozraste. –Moskva: Prosveshenie, 1991; Vo'gotskiy L. S. Mishlenie i rech. –Moskva: Pedagogika, 2012.
3. Tixomirov O. K. Psixologiya mishleniya. – Moskva: MGU, 2015.
4. Alavutdinova Ganievna, N. (2015). 20. Asir o'zbek dilbiliminde morfologiyeye ait gorushlerin shakillenmesinde prof. Eyyup gulamov'un yeri. Turkish Studies (Elektronik), 10(12), 1-14.
5. Saydullayeva, G. (2025). Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning intellektual kompetentligini rivojlantirish ahamiyati. В yangi o'zbekiston pedagoglari axborotnomasi (T. 3, Выпуск 1, cc. 57–58). Zenodo.